


Gulchehra SHODMONOVA  
Zafar ABDULLAYEV

**YER TUZISHDA IQTISODIY-  
MATEMATIK USULLAR VA  
MODELLAR**



O'quv qo'llanma «Yer tuzishda iqtisodiy-matematik usullar va modellar» fani bo'yicha Yer tuzish fakultetining «Yer tuzish va yer kadastr» ixtisosligini egallayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan magistratura va aspirantura tinglovchilari ham foydalanishlari mumkin.

**Taqrizchilar:**

**Q. Safayeva** – iqtisod fanlari doktori,  
professor;

**A. Bobojonov** – iqtisod fanlari nomzodi,  
dotsent

**Qat'iy buyurtma.**

**ISBN 978-9943-307-23-0**

©O'zbekiston davlat konservatoriyasining  
«Musiq» nashriyoti, 2007

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o'tilayotgan hozirgi davrda yer tuzish masalalarini talab darajasida yechishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada axborotlar bog'liqligiga ega bo'lgan masalalarni yechishni takomillashtirish uchun yer tuzish loyihalarining sifatini oshirish, yer tuzish va yerdan foydalanish, yer kadastri masalalarini tezlik bilan yechish uchun zamonaviy kompyuterlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun yer tuzish fakulteti talabalariga, magistrantlar, malaka oshirish fakulteti tinglovchilariga iqtisodiy-matematik modellashtirish asoslarini o'rganish va o'rgangan bilimlarini tajribada sinab ko'rish katta ahamiyatga ega.

Ushbu o'quv qo'llanmaga quyidagi masalalar kiritilgan:

-katta hajmda kelayotgan axborotlarni iqtisodiy-matematik usullar yordamida qayta ishlay olish va ularni tahlil qilish bilimlarini egallash va bu bilimlarni yer tuzishda qo'llay bilish;

-yer maydonlarini va ishlab chiqarishni tashkil qilishning samaradorligini oshirishning yangi rezervlarini topishda, yer tuzish masalalarini cheklangan resurslar sharoitida ekstremal yechimlarini topishga yordam beruvchi optimizatsiya usullarni o'rganish;

-yer tuzish loyihalarini va sxemalarini ishlab chiqishda, yerdan oqilona foydalanishni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni mustaqil modellashtirish bilimlarini egallash;

- iqtisodiy-statistik modellashtirish va ishlab chiqarish funksiyalari orqali modelning o'rganilayotgan jarayonga mos kelish darajasini baholashni turli ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali (korrelyatsiya koeffitsiyenti, determinatsiya koeffitsiyenti va boshqalar) amalga oshirishni o'rganish.

- yerga egalik qilishning optimal o'lchamini aniqlashning iqtisodiy-matematik modellashtirishni o'rganish.

Hozirgi vaqtda o'zining sohasida matematik modellashtirish usullarini qo'llovchi yer tuzuvchi, tizimli dasturiy ta'minotlar va standart dasturiy vositalar hamda amaliy dastur paketlaridan foydalana bilishlari kerak. Mana shu barcha vositalarga ega bo'la turib, zamonaviy kompyuter texnikasi imkoniyatlaridan foydalangandagina